

TA'LIMDA RAQAMLI VA AN'ANAVIY BAHOLASH TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI TAQQOSLASH

Hakimova Sarvinoz Sharifjon qizi

Namangan davlat Pedagogika instituti magistranti

Email: hakimovasarvinoz140@gmail.com

Abstract: *This article presents the advantages and disadvantages of digital assessment and traditional assessment systems in educational effectiveness, and emphasizes the areas of application. With a special focus on the field of education, it discusses the digital technologies that have been introduced and are expected to be implemented in the field. It discusses modern technologies for improving the effectiveness of education. The role of digital technologies in education and examples of their application are highlighted.*

Keywords: *Pedagogical technology, modern education, teacher, interactive methods, traditional and digital assessment criteria, method*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli baholash va an'anaviy baholash tizimining afzalliklari va ta'lim samaradorligidagi kamchiliklarikeltirib o'tildi, hamda qo'llanilish sohasiga alohida nazar tashlanib sohadagi joriy etilgan va amaliyotga tatbiq etilishi kutilyotgan raqamli texnologiyalar haqida so'z boradi. Ta'limning samaradorligini oshirishdagi zamonaviy texnologiyalar haqida mulohaza yuritildi. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni, qo'llanilish misollarga alohida yoritib berildi.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiya, zamonaviy ta'lim, pedagog, interfaol usullar, an'anaviy va raqamli baholash mezonlari, metod*

Аннотация: *В данной статье представлены преимущества и недостатки цифровых и традиционных систем оценки эффективности образования, а также выделены области их применения. Особое внимание уделяется сфере образования, рассматриваются внедренные и ожидаемые к внедрению цифровые технологии. Обсуждаются современные технологии повышения эффективности образования. Приводится роль цифровых технологий в образовании и примеры их применения.*

Ключевые слова: *педагогические технологии, современное образование, учитель, интерактивные методы, традиционные и цифровые критерии оценки, метод.*

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim sohasiga ham chuqur kirib keldi. An'anaviy ta'lim usullari o'rnini interaktiv, moslashuvchan va talaba ehtiyojlariga moslashtirilgan raqamli ta'lim shakllari egallamoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini



oshirish, o'quv materiallarini boyitish va ta'limning sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida baholash tizimi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini aniqlashda markaziy o'rin tutadi. An'anaviy baholash tizimlari ko'p yillar davomida standartlashtirilgan testlar, yozma ishlar va og'zaki savollar orqali amalga oshirilgan. Shu bilan birga, raqamli baholash tizimlari interaktiv platformalar, onlayn testlar va avtomatlashtirilgan natija tahlili orqali o'quv jarayonini yanada tezkor va samarali monitoring qilish imkonini beradi. Chunki bugun raqamli texnologiyalar asrida bunday baholash usullari ta'lim samaradorligi uchun juda foydalidir.

Hozirgi zamon ta'limida raqamli va an'anaviy baholash tizimlari o'quvchilarning motivatsiyasi, bilim darajasi va o'qituvchilarning pedagogik yondashuviga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ularning samaradorligini solishtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Ta'lim jarayonida baholash tizimi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini aniqlashning asosiy vositasidir. An'anaviy baholash tizimlari, masalan, yozma ishlar, testlar va og'zaki javoblar, ko'p yillar davomida ta'limning standart qismi bo'lib kelgan. Shu bilan birga, raqamli baholash tizimlari, jumladan onlayn test platformalari, interaktiv baholash dasturlari va avtomatik natija tahlili, o'quv jarayonini real vaqtda monitoring qilish, individual yondashuvlarni qo'llash va ma'lumotlarni samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun baholash tizimlarining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli va an'anaviy baholash tizimlarini taqqoslash, ularning o'quv natijalari, motivatsiya va pedagogik jarayonga ta'sirini tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ta'lim bu har bir davlatning qurilish asoslaridan va yurtning tayanch poydevoridir. Bu haqiqatni anglagan davlatlar kundan-kunga ta'limga katta e'tibor bermoqdalar. Xususan, ta'lim sohasida eng so'nggi ilg'or texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy ta'lim metodlaridan samarali foydalanish zamon talabiga aylanganligini ko'rish mumkin. Axborot texnologiyasi bu aniq texnik dasturlar vositasining majmui bo'lib, ular yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman masalalarni hal etish mumkin. Ayniqsa raqamli texnologiyalarni fan tarmoqlari bo'yicha to'g'ri qo'llash juda yaxshi va samarali natijalarga olib keladi.

Har bir sohada bo'lgani kabi ta'limda ham zamonaviy texnologiyalar kirib kelib ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo'layotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu o'rinda bir tabiiy savol tug'iladi. Raqamli texnologiya o'zi nima? Bu-xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonining eng qisqacha ta'rifini quyidagicha berish mumkin: ta'lim jarayoni o'ziga xos boshqaruv jarayoni hisoblanib, bunda pedagogik tizimga maqsadli yo'naltirilgan holda ta'sir ko'rsatilishidir. Ma'lum ma'noda shuni ta'kidlash mumkinki,



ta'lim jarayonida bilimlar tashkillashtiriladi va o'zgalarga uzatiladi. Mazkur jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun pedagogika fanida maxsus ta'lim modellari qo'llaniladi. Bu modellar pedagogik tizimlarni oqilona boshqaruvni tashkil qilishga yordam beradi. Pedagogik modellar tarkibi va mohiyatiga ta'lim berishning tiplari kiradi. Pedagogika fanida ta'lim asosan uchta turga ajratiladi: an'anaviy ta'lim berish usuli, pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim berish usuli, dasturlashtirilgan ta'lim berish usuli. Quyida biz ularning mohiyatiga qisqacha tavsif berib o'tamiz. Ta'lim usullarining birinchisi hamda eng qadimiysi «an'anaviy o'qitish usuli» hisoblanadi. An'anaviy ta'lim usulida ta'limning sinfda dars berish ko'inishi va «kimdir gapiradi, kimdir tinglaydi» kabilidagi holat yuzaga keladi. An'anaviy dars berish usulining o'ziga xosligi shundaki, bu usul yordamida qisqa muddat ichida katta ko'lamdagi ma'lumotni uzatish mumkin. Uning kamchiligi shundaki, u asosan, talaba tafakkuriga emas, balki uning xotirasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu ta'lim usulida mashg'ulotlar olib borilganida ijobiy qobiliyatlar, mustaqil fikrlash va faollik kamroq taraqqiy qiladi. Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma xil usullardan foydalanishini, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiya - o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.P. Bospalko).[1.74B]

Pedagogik texnologiya - bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayoniga tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya'ni o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat 75 jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir (B.G'. Ziyomhammadov).

Raqamli baholash (digital assessment) bugungi ta'lim jarayonida an'anaviy baholashning samaradorligini oshirish va pedagogik nazoratni yanada interaktiv qilish vositasi sifatida tobora ahamiyati yanada oshib bormoqda. Raqamli baholash o'quvchilarning bilim darajasini tezkor, ishonchli va individual yondashuv asosida aniqlash imkonini oshiradi. Shu bilan birga, u ta'lim jarayonida avtomatlashtirilgan natija tahlili, real vaqt feedback va o'quvchi motivatsiyasini oshirish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, raqamli baholash o'quvchilarning o'zini baholash (self-assessment) va hamkasblararo baholash (peer assessment) jarayonlarini ham qo'llash imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va mas'uliyatini yanada rivojlantiradi.



1-jadval

T/r	An'anaviy baholash tizimi	Raqamli baholash tizimi
1.	Yozma ishlar, testlar, og'zaki savollar	Onlayn testlar, interaktiv platformalar, avtomatik baholash dasturlari
2.	Sekin, odatda topshiriq berilganidan keyin o'qituvchi tomonidan qo'lda baholanadi	Tezkor, avtomatik natija va feedback darhol beriladi
3.	Cheklangan; barcha o'quvchilar uchun bir xil testlar	Moslashuvchan; o'quv darajasiga qarab testlar va mashqlar o'zgartiriladi
4.	O'quvchi faqat baho olishga e'tibor qaratadi	Interaktivlik va tez feedback o'quvchining motivatsiyasini oshiradi
5.	Qo'lda statistik tahlil qilish kerak, vaqt talab etadi	Avtomatik tahlil va vizualizatsiya imkoniyati mavjud
6.	Minimal; faqat qog'oz va qalam kerak	Kompyuter, internet va maxsus dasturlar talab etiladi
7.	Kuchli rivojlanadi; chuqur fikrlashni rag'batlantiradi	Kamroq rivojlanadi; tezkor javob va testga asoslangan ko'nikmalar kuchayadi
8.	Past; standartlashtirilgan shaklda ishlaydi	Yuqori; real vaqtda shaxsiylashtirilgan mashqlar va testlar berilad
9.	Oddiy, texnologiya talab qilmaydi	Texnologik muammolar yuzaga kelishi mumkin, raqamli savodxonlik zarur
10.	An'anaviy ko'nikmalarni shakllantirishda samarali	Ta'lim jarayonini monitoring qilish va individual rivojlanishni kuzatishda samarali

Xulosa. Hozirgi kunda jamiyatimizda raqamli texnologiyalarni har bir soha va tarmoqqa integratsiya qilish zaruriyati tobora oshib bormoqda. Ishlab chiqarishdan tortib, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga, har bir jarayonni raqamlashtirish samaradorlikni oshirish va resurslarni tejash imkonini beradi. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir. Zero har bir davrning o'ziga xos tomonlari bo'lgani kabi o'ziga xos talablari ham mavjuddir.

Raqamli texnologiyalar, yuksak g'oyalar, shiddatli fikrlar aks etgan davrda unga hamohang bo'lib yashamoq zarurdir. Balki dunyo hozirgi kabi hech qachon globallashtirmaganidir. Chunki ixtirolar yer yuzining qayerida kashf etilmasin darhol butun dunyoga yoyiladi. Bu esa bizdan yanada xushyor va ilimli bo'lishimizni taqozo etadi. Zamon bilan hamnafas bo'lishda ziyoli pedogoglar bilan bir qatorda shijoatli



yoshlarning ham o'rni beqiyosdir. Ilm-fandagi so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishimiz bilan birgalikda shunga yarasha biz ham javob qaytara olishimiz lozim bo'ladi.

Zamonaviy texnologiyalarning afzalliklarini yaxshi anglagan jamiyat darhol uni o'zida joriy etish bilan birgalikda, o'zi ham bu borada izlanishlarga keng yo'l ochadi, xalqning tabiiy resurslari, qimmatbaho energiya va qiymatli vaqtini tejagan holda ishlab chiqarishda, agrar, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya qo'yinki barcha tarmoqlarda yuqori natijalarga erisha oladi. Bu esa bevosita davlatining bug uni va kelajagi ravnaqining asosi bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. Umuman olganda, an'anaviy baholash tizimi pedagogik jarayonning barqarorligini ta'minlash va o'quvchilarning asosiy bilim ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim talablariga javob berish uchun raqamli va interaktiv baholash tizimlari bilan uyg'unlashtirilishi tavsiya etiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. SHAROPOVA. Z.F «TA'LIM TEXNOLOGIYALARI» darslik. - T.: «Navro'z» nashriyoti, 2019y
2. G'afforov.Y.X. Tarix O'qitish Metodikasi.Toshkent. Turon-Iqbol-2022.
3. Saidova S, Jonuzoqov M, Toshtemirova S ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash ahamiyati. Effectiveness of Introduction of Digital Technologies in the Educational Process. Oktabr-2023.
4. Abdullayev. M, Saidahrorov. G, Ayupov. R Raqamli iqtisodiyot-kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari. 2020.
5. Xakimova, S. Alohida Ta'lim Ehtiyojiga Ega O'quvchilarning Kasbiy Faoliyatga Tayyorlashning Pedagogik-psixologik Asoslari. Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali, 674835.
6. Xakimova, S. S. Q. (2023). talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 785-790.
7. Qurbonova, M. *Ta'lim texnologiyalari*. Toshkent: «Navro'z.» nashriyoti, 2019y
8. Rustamova, L.A., & Azimova, V.O. (2024). Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim olish metodikasini takomillashtirish. O'zbekiston Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 27, 20-22.